

OILA KICHIK SOTSIAL GURUH SIFATIDA

Zarifa Xoliqova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti Universiteti,
o'zbek tili ta'limi fakulteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası,
sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11497539>

Annotatsiya. Bu maqolada siz oila tushunchasi, oila sotsiologiyasi, sotsial guruh, kichik guruh, sotsial guruh tushunchasi, oilaning sotsial institut sifatida vazifalari, sotsial institut, g'arb sotsiologlarning fikrlari, sotsial tashkilotlarning funksiyalari, sotsial tizim va uning xususiyatlari, nikoh va oilaviy munosabatlarning barqarorligi yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligiga bog'liq bo'lib, bu erda turmush qurishga tayyorlik oilaviy turmush tarziga hissiy ijobiy munosabatni belgilaydigan shaxsning ijtimoiy-psixologik munosabatlari tizimi sifatida tushuniladi.

Kalit so'zlar: Nikoh, oila, tarbiya, munosabatlar, farzand, jamiyat, turmush, oilaviy munosabatlar, yoshlar, ota-ona, shaxs, oila tushunchasi, oilaning funksional xususiyatlari, oila turlari, oila energetikasi, oila tizmi, oilaning chegarasi va hududi.

FAMILY AS A SMALL SOCIAL GROUP

Abstract. In this article, you will learn about the concept of family, sociology of family, concept of social group, small group, social group, functions of family as a social institution, social institution, opinions of western sociologists, functions of social organizations, social system and its characteristics, stability of marriage and family relations among young people. depends on readiness for family life, where readiness for marriage is understood as a system of socio-psychological relations of a person that determines a positive emotional attitude to family life.

Key words: Marriage, family, education, relationship, child, society, marriage, family relations, youth, parents, person, concept of family, functional characteristics of family, types of family, family energy, family system, boundary and territory of family.

СЕМЬЯ КАК МАЛАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ГРУППА

Аннотация. В этой статье вы узнаете о понятии семьи, социологии семьи, социальной группе, малой группе, социальной группе, функциях семьи как социального института, социальном институте, взглядах западных социологов, функциях социальных организаций. Социальный строй и его характеристики, устойчивость брака и семейных отношений зависят от готовности молодых людей к семейной жизни, где под готовностью к браку понимается система социально-психологических отношений человека, определяющая положительное эмоциональное отношение к семейной жизни.

Ключевые слова: Брак, семья, воспитание, отношения, ребенок, общество, брак, семейные отношения, молодежь, родители, личность, понятие семьи, функциональные характеристики семьи, типы семьи, энергия семьи, семейная система, граница и территория семьи.

KIRISH: Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo‘lmagan. Ibtidoiy jamoa¹ tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, so‘ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo‘lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo‘jalikka ega bo‘lmagan. Bu davrda tabiiy omil o‘z vazifasini tugalladi, ya’ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo‘lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan.

Oila kichik sotsial guruh sifatida. Oila sotsiologiyasi: Oila sotsiologiyasi umumiy sotsiologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o‘rganadi. Buning muhim sabablaridan biri har bir shaxsning jamiyatda boshqalar bilan sotsial munosabatlarida avvalo oilaning ahamiyati yaqqol ko‘zda tutiladi, ya’ni oilada olgan madaniyatini jamiyatda namoyon etishidir.

Oilaning sotsial institut sifatida alohida vazifalari mavjud bo‘lib ular quyidagilardir:

- Oilaning mohiyati va faoliyati o‘zgarib borishi aniqlash;
- Nikoh va oila turlari evolutsiyasini o‘rganish;
- Oila tashkil topishi va taraqqiyotida avlodlarning o‘zaro ta’sirini o‘rganish;

¹

Etnik guruh — muayyan bir xalq (qabila, qabila ittifoqi, elatning) ning parchalanib alohida qismlarga bo‘linib ketishi natijasida vujudga keladigan guruh.

- Oila tarbiyasi;Mehnat taqsimotida oilaning o'rnini o'rganish;
- Oilaning rekreativ faoliyatini va oila huquqining ijtimoy mohiyatini ochib berish.

Sotsial institut - jamiyatdagi muayyan ijtimoy munosabatlarni tartibga solib tursa,sotsial institutlarning yig'indisi jamiyatning ijtimoiy tizimini tashkil qiladi.Bundan ko'rinib turibdiki,jamiyatning tashkil topishida,uning davomiyligini ta'minlashda,oila sotsial institut sifatida asosiy va ijtimoiy manba hisoblanadi.

Sotsial institut - jamiyatdagi muayyan ijtimoy munosabatlarni tartibga solib tursa,sotsial institutlarning yig'indisi jamiyatning ijtimoiy tizimini tashkil qiladi.Bundan ko'rinib turibdiki,jamiyatning tashkil topishida,uning davomiyligini ta'minlashda,oila sotsial institut sifatida asosiy va ijtimoiy manba hisoblanadi.

Oilaning asosini ayol va erkak o'rtasidagi nikoh va nasl tashkil etadi.

Aynan bir xil sotsial tizim (oila) teng ravishda,ham sotsial nazorat tizimi, ham sotsial institut, ham sotsial tashkilot sifatida qaralishi mumkin.

"Oila "markazining faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlar bilan belgilanadi

- Umuminsoniy qadriyatlarning milliy oilaviy tarbiyadagi rolini oshirish va ularning oilada uyg'unlashuvini ta'minlash;
- Oilaning ijtimoiy iqtisodiy holatini,uning demografik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;
- Oila va jamiyat muammolari bo'yicha xalqaro munosabatlarni o'rganish;
- Oilaning huquqiy bilimlarini tubdan oshirish va uni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy -amaliy faoliyat olib borish;

Oila va jamiyat muammolari hamda ularni hal qilish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy -ommabop risolalar yaratish.

Kishilar o'z hayot faoliyatlari davomida birlashadigan guruhlar masalasi nafaqat sotsial psixologiya fanining, balki sotsiologiyaning ham muhim masalasi bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar asosan sotsial guruhlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Kishilik jamiyatida nihoyatda ko'p turli-tuman jamoalar, uyushmalar, birliklar, tashkilotlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oilaning jamiyat taraqqiyotidagi ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashdagi katta ahamiyatini hisobga olib,oilaga daxldor boy hamda chuqur milliy an'analarni asrash maqsadida 1998 yil 2-fevralda "Oila " Respublika ilmiy amaliy markazini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oilaning jamiyat taraqqiyotidagi ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashdagi katta ahamiyatini hisobga olib,oilaga

daxldor boy hamda chuqur milliy an'analarni asrash maqsadida 1998 yil 2-fevralda "Oila " Respublika ilmiy amaliy markazini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi.

Sotsiologiyada sotsial institutlar. Sotsial institutlar amal qilishining obyektiv va subyektiv asoslari

- Sotsial institut (lotincha-institutum, Ruscha lug'aviy ma'nosi- ustanovleniya, o'zbekcha ma'nolarda, birinchidan, nizom, qoidalar yoki ularning to'plamini, ikkinchidan, mahkama, muassasalarni bildiradi). Sotsial institutlar yoki

institutsional sotsiologiya maxsus nazariy yo'nalishdir. Sotsiologiyaga sotsial institute tushunchasi huquqshunoslik fanlaridan kirib kelgan.

Sotsial institutlarni konkret tashkilot va guruhlardan farqlash lozim. Yuzaki ko'rinishda, sotsial institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar, muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi.

Sotsial institut, qisqacha ta'rifda, odamlarning sotsial tashkillashgan va regulyatsiya qilinadigan faoliyatlarini anglatadi.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va xalqaro sohalariga hos bo'lgan sotsial institutlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Siyosiy institutlar muayyan hokimiyat mavjudligini, iqtisodiy institutlar esa moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishini, taqsimlanishini ta'minlaydi.

Jamiyatning muhim institutlaridan biri oila hisoblanadi. Uning faoliyati (ota-onalar, otaonalar va bolalar o'rtasidagi tarbiya usullari) huquqiy va ijtimoiy normalar bilan belgilanadi.

Bundan tashqari jamiyatda bir qator ijtimoiy-madaniy institutlar (maorif, sog'liqni saqlash tizimlari, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan va din institutlari) amal qiladi.

Demak, sotsial institutlarning eng muhim quyidagi turlari mavjud:

- Oila - jamiyatning muhim institutlaridan biri.
- Ijtimoiy-madaniy institutlar

Sotsial tashkilotlar, ularning tarkibi va asosiy elementlari

Sotsial institutlar singari sotsial tizim amal qilishini ta'minlaydigan ijtimoiy strukturaning asosiy «hujayra»laridan biri sotsial tashkilotlardir. Sotsial institutlardan farqli ravishda, sotsial tashkilotlar deganda odamlarning ish jarayonida muayyan vazifalarni bajarishdagi ixtiyoriy yoki majburiy uyushmasi tushuniladi. «Tashkilot» atamasi ijtimoiy birlashuvlarning shakli sifatida qo'llaniladi. Tashkilot a'zosi bo'lgan odamlarning manfaatlari umumiyliigi tashkilotning ideal holga ega bo'lishini tashkilotning maqsadi uning barcha a'zolari maqsadi bilan muvofiq kelishi ko'zda tutiladi.

Tashkilotga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Tashkilot deb, eng avvalo o'zaro bog'langan va o'ziga hos maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan ijtimoiy guruhlariga aytiladi.

G'arb sotsiologiyasida sotsial (ijtimoiy) tashkilotlarni tadqiq qilishda, ularning psixologik qonuniyatlariga ko'proq e'tibor beriladi.

Masalan: G. Zimmel (1858-1918) M.P. Blau (1918-2002) sotsiologik nazariyalarida ijtimoiy tashkilotlardagi subyektning hulqi va motivini psixologik asosda tushuntirishga asoslaniladi.

Amerikalik mashhur sotsiolog J. Homansning (1910-1989) ijtimoiy tashkilotlarni tadqiq qilishda sotsiologiya, psixologiya va pozitiv mantiqqa asoslanish zarurligi to'g'risidagi fikri, hozirgi davrda nazariy jihatdan sotsiologiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Yana bir Amerikalik sotsiolog D. Bell (1919–2011) “universitet, institutlar ijtimoiy tashkilotlarning markaziy o'rinlarini egallaydi” deb ko'rsatadi Uning maorif va fan ijtimoiy progressni ta'minlovchi asosiy institutlar hisoblanadi, degan

fikri hozirda bir qator ilg'or davlatlar tajribasida isbotlandi.

Sotsial tashkilotlar ikki hil funksiyani bajaradi:

1. Axloq normalari va qadriyatlarni o'zlashtirish yo'li bilan ijtimoiylashuvni ta'minlash, insonlarning ijtimoiy munosabatlarda qatnashuvlari uchun dastlabki shartsharoitlar yaratish.

2. Individ² hatti-harakatlari, yo'nalishlari va munosabatlarning mavjud tizim doirasidan chetga chiqmasligini nazorat qilish

Amerikalik sotsiolog A. Ettsioni rasmiy tashkilotlarni 3 ta asosiy tashkilotga ajratadi: (1929)

1. Erkin tashkilotlar (ko'proq jamoat tashkilotlari, xotin- qizlar jamiyatlari va h.k.

2. Utilitar (manfaatli) tashkilotlar. Kooperatsiya, birlashmalar, firmalar, davlat muassasalari va h.k.

3. Majburiy tashkilotlar. Axloq tuzatish muassasalari, qamoqxona, turma, armiya va h.k.

Sotsial tizimlar va ularning asosiy xususiyatlari Sotsial institutlar, tashkilotlar va ijtimoiy hodisalar turli xil o'ziga hos kesishmalarda sotsial tizimni tashkil etadi. Odatda tizim deyilganda, birbirilari bilan o'zaro aloqada bo'lgan va muayyan

butunlikni tashkil etuvchi, alohida tarzda tartiblashgan elementlar majmui tushuniladi. Tabiatdaga narsalar, jamiyatdagi hodisa va jarayonlar bir butun tizimni tashkil etadi. Tizimli

² Individ,- individuum (lotincha: individuum — bo'linmaydigan) — 1) alohida, mustaqil holda mavjud bo'lgan organizm; alohida odam, shaxs. Individ bolaning ma'lum bir yoshgacha bo'lgan davrni oladi. Buni fanda o'rtacha 3 yosh deb olingan.

yondashuvning asosiy vazifalaridan biri obyekt to'g'risidagi barcha bilimlarni bir butun sistemaga keltirishdir

Sotsial tizimlar formatsion, madaniy, individual-shaxsiy sifat va darajalarida ko'rilishi mumkin. Formatsion yondashuvda jamiyatda ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlar sotsial, mafkuraviy va siyosiy munosabatlardan iborat tabiiy-tarixiy bir butun sistemadir

Sotsial tizimlarning murakkab iyerarhiyasi mavjud. Jamiyatning yaxlit bir butunligi eng katta tizim hisoblanadi. Uning iqtisodiy, sotsial, siyosiy va mafkuraviy kabi muhim ost tizimlari mavjud. Boshqa ost tizimlar - sinflar, etnik tuzilma va hokazolar. Sanab o'tilgan ost tizimlar o'z navbatida bir qancha boshqa tizimlardan hozirgacha jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish, asosan, ikki yo'nalishda rivojlanib keldi.

Birinchi yo'nalish: O.Kontdan boshlab fransuz sotsiologi E.Dyurkgeim orqali rivojlantirilgan amerikalik olim T.Parsonslarning psixologik ta'limotidir.

Bu yo'nalishda ijtimoiy tizimning o'zgarishi tashqi kuchlar ta'siri orqali tushuntirilib, ko'proq psixologik jihatlarga e'tibor berilgan

Ikkinchi yo'nalish: marksistik sotsiologik ta'limot bo'lib, unda ijtimoiy tizim ziddiyatlar asosida, ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, materialistic mohiyatga ega bo'lgan moddiy munosabatlarning belgilovchi rolga asosiy e'tibor qaratilgan.

«Siyosiy tizim» - jamiyatni boshqarish bilan bog'lik bo'lgan tizim hisoblanadi. Bu tizim tarkibiga barcha siyosiy tashkilotlar, davlat, huquqiy organlar (sud, prokuratura, militsiya, qamoqhona va boshqalar), siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va ular bilan bog'liq bo'lgan siyosiy munosabatlar kiradi.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarning tizimiga xos umumiy xususiyatlari: Odamlar o'rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatining eng muhim shartlaridan hisoblanadi.

Odamning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi, nazokatligi va shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatlardir. Shu bilan birga uyqusizlik, bosh og'rig'i, nevrozlar, insultlar, infarktlar va boshqa turli kasalliklar, shuningdek ichkilikka, giyohvand moddalarga ruju qo'yish, hatto o'z joniga qasd qilish kabilari ham shu muloqotning natijasidir.

Rivoyatlarda aytilishicha, dono Ezop o'z xo'jayinining «Menga avval, dunyodagi eng mazali, shirin taomni keltir va undan so'ng aksincha eng bemaza, yaramas taomni keltir», — deb buyurganida, u har ikkala safar ham qaynatilgan tilni keltirgan ekan. Demak, til, muloqot inson

hayotida undan qanday foydalanish, uni qanday ishlatish, qanday tashkil qilishga qarab, uning uchun eng aziz, eng qadrli bo'lishi yoki aksincha eng fojiali bo'lishi ham mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida odamlar kundalik muloqotining tezlashuvi, aholi zichligining ortib borishi, odamlar turmush tarzining jadallashuvi, ularning ruhiy zo'riqish va ta'sirlanuvchanligining kuchayib borishi kabi holatlar bugungi kunda odamlarning muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishini taqozo etadi. Muloqot madaniyati. Muloqot madaniyatiga birinchidan, o'z-o'zini bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, ya'ni ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olish, ikkinchidan, ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos (adekvat) munosabat bildira olish, uchinchidan, har bir odamga nisbatan uning shaxsining individual xususiyatlariga eng ma'qul keladigan muloqot shakli, usuli va stillarini tanlay bilish kiradi.

Muloqot madaniyatini oshirish uchun odamda ilk yoshlikdan boshlab boshqa odamlarga hurmat va samimiyat bilan munosabatda bo'lishni, ularga hamdardlik, insonparvarlik, mehribonlik qilish qobiliyatlarini shakllantirib borish kerak bo'ladi. Muloqot eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi, unda dastlabki o'zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma'lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan bevosita emotsional munosabatlar muhim rol o'ynaydi.

Muloqotda buyruq ohangining ustunligi, do'q-po'pisa ohangida keskin shaklda muomalada bo'lish, suhbatdosh nomiga tez-tez bildirilib turiladigan e'tirozlar, uning xatti-harakati va fikrlaridan norozilikni ifodalash, yo'l bermaslik va tajovuzkorlikni namoyon qilish, oilada o'zaro raqobat (yoki hukmronlik-bo'ysinuvchanlik) munosabatlarini yuzaga keltiradi.

Befarqlik, e'tiborsizlik, qo'pollik, bemehrlik, behurmatlik kabilar oiladagi samimiy muloqotga putur yetkazadi. Agar aksariyat hollarda iltimoslardan, maslahatlardan, o'zaro kelishuvli savol-javoblardan, o'z niyat-istaklarini, xatti-harakatlarini xotirjamlik bilan bayon qilish usulidan foydalanilsa, agar oilada o'zaro yordam, o'zaro tushunish, bir-birlariga yon berish odat bo'lsa, unda bunday oilalarda do'stona munosabatlar o'rnatiladi, oilaviy hayot uchun eng maqbul bo'lgan psixologik muhit yuzaga keladi.

Oilaviy munosabatlar tizimi juda murakkab va ancha teran mazmunga ega bo'lib, o'z ichiga er xotin o'rtasidagi, ota ona va farzandlar, aka uka va opa singillar o'rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini oladi.

Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni

yaratishdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O’zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to’laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart –sharoitlar yaratadi” degan normalar aks etgan. Haqiqattan ham, o’zbek xalqida oila ne’mati doimo aziz tutilgan, qo’ydi –chiqdilarva ajrimlar jiddiy qoralangan, er-xotin ajrashsa arshning kursisi zir titraydi, deyishgan. Oila tushunchasi bundan keyin ham bizda muqaddas bo’lib qolishiga ishonchim komil.

Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratishdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O’zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to’laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart –sharoitlar yaratadi” degan normalar aks etgan. Haqiqattan ham, o’zbek xalqida oila ne’mati doimo aziz tutilgan, qo’ydi –chiqdilarva ajrimlar jiddiy qoralangan, er-xotin ajrashsa arshning kursisi zir titraydi, deyishgan. Oila tushunchasi bundan keyin ham bizda muqaddas bo’lib qolishiga ishonchim komil. Sharq madaniyati va ma’naviyati shu qadar noyob, betakror va jozibali bo’lib, buningasosiy sabablaridan biri o’zbek oilasining betakror muhiti, undagi an’analar, rasm-rusmlar va qadriyatlarning barhayotligidadir.

Zero, har qanday oila inson taqdiri va kamolotini, kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi bilan xarakterli hisoblanadi. Ayniqsa, undagi an’analar, milliy qadriyatlar ma’naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni, ya’ni sog’lom avlodni tarbiyalash, voyaga etkazishda ularning o’rni va ahamiyati kattadir.

Odamlar o’rtasida bir-birlarini tushunishning yetishmasligi ko’pincha muloqotdagi to’siq, shaxslararo munosabatlarni buzilishining sababi bo’lib hisoblanadi. Bizlar boshqa odamlar bilan bo’ladigan o’zaro munosabatlarimizda nima uchundir, o’zimizning fikr-o’ylarimiz, niyatlarimiz suhbatdoshimizga ayon deb hisoblaymiz. Bundan tashqari hamma odamlar ham bolaligidan boshqa odamlarning emotsional holatlarini his qilish, ularni ko’rish, ular bilan hisoblashish, ularni tushunishga intilishga o’rgatilavermaydi. Shuning uchun ham ko’pchilik holatlarda hatto bir-biriga eng yaqin, bir-biriga zid manfaatlarga ega bo’lmagan odamlar ham hayotda bir-biriga noxushliklarni yetkazishi mumkin. Albatta, bu ishlarni ular bir-birlariga yomonlik, yovuzlik qilish

niyatida, yoki o'zlari yovuz odamlar bo'lganliklari uchun emas, balki, shunchaki bir-birini tushunmaganliklari «nima qilayotganliklarini bilmaganliklari» uchun sodir etadilar. Shunga o'xshash holatlar odamlarning o'zaro munosabatlari, muloqotlarida o'ziga xos to'siq vazifasini bajaradi.

Yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarlik muommolari: Zamonaviy oilaning eng muhim ijtimoiy vazifasi kelajak oila boshlig'ini tarbiyalash, ya'ni yosh avlodni nikoh va oilaviy munosabatlarga tayyorlashdir. Bunga salbiy jarayonlarning kuchayishi: oilaviy turmush tarzining tanazzulga uchrashi, nikoh va oilaviy munosabatlarning muqobil shakllarining keng tarqalishi, oila obro'sining pasayishi, farzand ko'rish zarurati, ajralishlar va oila ichidagi zo'ravonliklarning ko'payishi sabab bo'lmoqda. Zamonamizdagi oilaviy hayotning eng yaxshi an'analari va yangiliklarini o'zida mujassam etgan yosh, mustahkam oilani barpo etishning dolzarbligi jamiyatning ma'naviy-axloqiy inqirozi va ijtimoiy hayot inqirozidan chiqish yo'lining ajralmas va eng muhim qismidir. Zamonaviy oilaning eng muhim ijtimoiy vazifasi yosh avlodni nikoh va oilaviy munosabatlarga o'rgatishdir. Nikoh va oilaviy munosabatlarning barqarorligi yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligiga bog'liq bo'lib, bu erda turmush qurishga tayyorlik oilaviy turmush tarziga hissiy ijobiy munosabatni belgilaydigan shaxsning ijtimoiy-psixologik munosabatlari tizimi sifatida tushuniladi. Zamonaviy oilaning eng muhim ijtimoiy vazifasi kelajak oila boshlig'ini tarbiyalash, ya'ni yosh avlodni nikoh va oilaviy munosabatlarga tayyorlashdir. Bunga salbiy jarayonlarning kuchayishi: oilaviy turmush tarzining tanazzulga uchrashi, nikoh va oilaviy munosabatlarning muqobil shakllarining keng tarqalishi, oila obro'sining pasayishi, farzand ko'rish zarurati, ajralishlar va oila ichidagi zo'ravonliklarning ko'payishi sabab bo'lmoqda.

Yoshlarning jamiyatdagi mavqei, rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollari, avvalambor, uning kelajagini belgilab bergani bilan jamiyat uchun katta qiziqish va amaliy ahamiyatga ega. Bu yerda yoshlarning nikoh va jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida oilaga munosabati muhim o'rin tutadi.

Dunyoning aksariyat qismlarida nikohning o'rtacha yoshi o'sib bormoqda va o'n yil avvalgiga qaraganda, dunyo bo'ylab o'smirlik davrida kamroq nikohlar sodir bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda oilaviy munosabatlarda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ko'pgina mamlakatlarda munosabatlarning yangi turi tobora keng tarqalmoqda - ro'yxatdan o'tmagan nikoh. Biroq, yoshlarning qadriyat yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila yoshlar uchun asosiy qadriyat bo'lib qolmoqda. Yoshlar sotsializatsiya jarayonida ota-onalarning oilasidan yordam va yordam izlaydilar va ular o'zlarining bo'lajak oilasini insonparvarlik va axloqiy tamoyillar asosida qurishga tayyor, lekin shu bilan birga ularda juda katta psixologik bilim va ko'nikmalar etishmasligi mavjud.

Bu asarda yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligini shakllantirish muammosining ko'p jihatlari qatorida zamonaviy jamiyatda oila va nikohning ijtimoiy rolini to'g'ri anglash, fuqarolik huquqiy ongining mavjudligi ko'rsatilgan. Binobarin, yoshlarni oilaviy hayotga maqsadli tayyorlash zarurati ham nikoh-oila munosabatlarini yanada rivojlantirish, uning shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishiga xizmat qilishi, ham o'zaro munosabatlarga nisbatan erkaklar va ayollar, oilaviy hayot haqida noto'g'ri qarashlarni bartaraf etish bilan belgilanadi.

Pedagog³ va psixologlarning ta'kidlashicha, yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash uning yosh rivojlanishining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak va ta'limning umumiy muammolaridan ajralmasdir. Shaxs qismlarga bo'lib shakllanmaydi va bir sohada ta'limning etishmasligi boshqa sohada uning natijalarini buzadi. Insonni oilaviy hayotga, ishlab chiqarish faoliyatiga yoki jamoat hayotida faol pozitsiyani egallashga alohida tayyorlash mumkin emas. Oila shaxsning axloqiy va aqliy tarkibini tashkil etuvchi asosiy va ijtimoiy asosdir.

Oiladagi psixologik iqlim va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar har qanday yoshdagi shaxsning ishlab chiqarish faoliyatiga, ijtimoiy vazifalarni bajarishiga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bevosita ta'sir qiladi. Jinsiy tarbiya, yoshlarni nikoh va oilaviy munosabatlarga tayyorlash dolzarb va murakkab pedagogik muammolardan biridir. Oila tarbiyasi jamiyatda yosh avlodni tarbiyalash shakllaridan biri sifatida, V.A. Suxomlinskiyning fikricha, ota-onalarning, barcha oila a'zolarining maqsadli harakatlari va kundalik hayot va oilaviy munosabatlarning bolalarga ob'ektiv ta'sirini o'z ichiga oladi. O'qituvchi bolalarning oilaviy tarbiyasi tajribasini tahlil qilib, "Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mavjud munosabatlarga ega oila birinchi intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya maktabi ekanligini" ko'rsatdi. V. A. Suxomlinskiyning chuqur ishonchiga ko'ra, oila bolalarda axloqiy tuyg'ularni singdirishning asosiy maktabi bo'lishi kerak va bu axloqiy g'oyalar va tushunchalarni shakllantirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish, axloqiy e'tiqodlarni rivojlantirish, xulq-atvor ko'nikmalarini va odatlarini shakllantirishni anglatadi.

Nikohgacha ta'limga katta hissa qo'shgan V.A. Suxomlinskiyning aksariyat hollarda nikohning asosiy motivi "sevgi" deb hisoblagan. Biroq, "sevgi" ni nikoh motivi sifatida ataganda, yoshlar bu so'zga turli xil ma'nolarni qo'yishadi. T.A. Florenskaya bu so'zning uch xil tushunchasini belgilaydi: sevgi - jinsiy jalb qilish; sevilish zarurati sifatida sevilish; dominant sifatida sevgi.

Nikoh haqida gapirganimizda, nikoh ittifoqiga kirish istagi va unga kirishga tayyorlik darajasi bir xil tushunchalardan uzoq ekanligini unutmasligimiz kerak.

³ Pedagogika (gr. 'παῖς', paida — bola, gr. 'ἄγω', gogos — yetaklovchi) atamasi qadimiy bo'lib, „bola yetaklovchi“ degan ma'noni bildiruvchi grekcha „paydogogos“ so'zidan kelib chiqqan.

XULOSA: Mustaqil O'zbekiston davlatining siyosiy tizimini sotsiologik jihatdan o'rganish siyosiy sohada qilinishi kerak bo'lgan quyidagi asosiy vazifalardan kelib chiqadi,

Bular: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etishda jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralari tuzilmasini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'lgan vazifalardir.

Mafkuraviy munosabatlar ham ijtimoiy tizim sifatida ma'naviy hayot qirralarini o'z ichiga oladi. Uning tarkibiga ma'naviy munosabatlar va ular bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar: madaniy muassasalar, fan, milliy mafkura, qadriyatlar va boshqalar kiradi.

Mustaqil o'zbek millatining ma'naviyatini tiklash va rivojlantirishda milliy til, milliy madaniyat, urf-odatlar, qadriyatlar, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyg'uni, milliy g'urur va iftihorni o'stirish masalalari muhim o'rin tutadi.

«Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-milion kishilar taqdiri bilan shakllangan.

Uni o'lchab ham, poyoniga yetib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olam» iborat.

REFERENCES

1. Andreeva, T.V. Oila psixologiyasi: darslik. nafaqa / T.V. Andreeva. - Sankt-Peterburg: Rech, 2004. - 244 p.
2. Cherkasova, V. Yu. Zamonaviy davrda nikoh yo'nalishlarini shakllantirish va amalga oshirishdagi qarama-qarshiliklar: mavhum . dis . Ph.D. ijtimoiy Fanlar:22.00.06 / V. Yu. Cherkasova; Ural. davlat nomidagi universitet A. M. Gorkiy. - M., 2004. - 18 b.
3. Azarova, E.A. Axloqiy ongdagi gender stereotiplari muammosi: diss . Ph.D. Fil. Fanlar./ E.A. Azarova. - M., 2000 - 130 b.
4. Технологии социальной работы с семьей и детьми. Учебное пособие. Ростов н/Д: Феникс, 2018. 259 с.
5. Karimovna, N. Y., & Shuhrat O'g'li, R. S. (2023). SHIFOKOR VA BEMOR O'RTASIDAGI SHAXSLARARO MUNSOBATNING O'ZIGA XOSLIGI. Scientific Impulse, 1(8), 695-700
6. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. -T.: Istiqlol, 2003.